

11-SINF Davlat huquqi asoslari ChSB - 1.

Sana: _____ **Sinf** _____ **O'quvchining**
F.I.SH. _____

1-yarim yillik CHSB savollari original

1. Nikohlanuvchi shaxslar FHDY organiga ariza bilan murojaat qilsa, qancha muddatdan keyin nikohi qayd qilinadi? (B- 2,5 ball)

- A) ariza bergandan keyin 10 ichida
- B) ariza bergandan keyin 2 oy o'tgach
- C) ariza bergandan keyin 15 kun ichida
- D) ariza bergandan keyin 1 oy o'tgach

2. Aliment bir bola uchun qancha miqdorda undiriladi? (B- 2,5 ball)

- A) ota-onaning har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining to'rtidan bir qismi
- B) ota-onaning har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining uchdan bir qismi
- C) ota-onaning har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining yarmi
- D) ota-onaning har oydagi ish haqi yoki boshqa daromadining beshdan bir qismi

3. Quyidagilardan ota-onaning majburiyatini toping. (B-2,5 ball)

- A) voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlaridan moddiy ta'minot olish
- B) farzandlarining mustaqil qaror qabul qilishiga to'sqinlik qilish
- C) o'z bolalarining huquqi va majburiyatlarini himoya qilishi
- D) farzandlariga faqat moddiy yordam berish, ma'naviy tarbiyaga aralashmaslik

4. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi uchun ma'muriy javobgarlikni o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang. (Q -4,5 ball)

- 1) tuhmat yoki haqorat qilish huquqbuzarligini sodir qilgan shaxs faqat jinoiy javobgarlikka tortiladi
- 2) 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning mustaqil ish haqi bo'lmasa, jarima ularning ota-onalari yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslardan undiriladi
- 3) shaxs davlat organining chiqargan qaroridan norozi bo'lsa ma'muriy sudga murojaat qilishi mumkin.

- A) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-to'g'ri B) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-to'g'ri
- C) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri D) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri

5. Fuqarolik ishlari bo'yicha mahalla qo'mitasi qarori asosida Sardorning savdo do'koni vaqtincha yopildi. Sardor bu qarorni qonunga zid deb hisoblaydi va o'z huquqlarini tiklamoqchi. Sardor qanday tartibda o'z huquqini himoya qilishi kerak? (Q-4,5 ball)

- A) Mahalla raisiga og'zaki e'tiroz bildiradi
- B) Ichki ishlar bo'limiga og'zaki murojaat qiladi
- C) Ma'muriy sudga yozma da'vo arizasi bilan murojaat qiladi
- D) Hokimiyatga telefon orqali shikoyat qiladi

6. 16 yoshli Akmal maktabdan keyin do'stlari bilan jamoat joyida shovqin-suron qilgan. Mahalla fuqarolar yig'ini bu holatni IIBga xabar qilgan. Akmalning bu harakati qanday baholanadi? (Q-4,5 ball)

- A) Jinoyat, qamoq jazosi qo'llaniladi
- B) Faqat ota-onaga ogohlantirish beriladi
- C) Hech qanday javobgarlikka tortilmaydi

D) Ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin, ammo yoshiga qarab yengillik berilishi mumkin

7. Ma'muriy huquqbuzarlik turlarini to'g'ri moslashtiring. (Q-4,5 ball)

1) tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar	a) haqorat qilish
2) fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar	b) belgilanmagan joyga qurilish chiqindilarini tashlash
	c) tuhmat qilish
	d) saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarni boqish

A) 1- a, b; 2-c, d B) 1- b, c; 2-a, d C) 1- b, d; 2-a, c D) 1- a, d; 2-b, c

8. Profilaktika inspektori maktabda o'quvchilarning tartib-intizomiga e'tibor qaratmoqda. U avval maktabdagi barcha o'quvchilarga yaxshi xulq-atvorning ahamiyatini tushuntirdi, keyin bir necha o'quvchining kichik qoidabuzarliklarini qayd etdi va ularga yozma ogohlantirish berdi. Shu vaziyatda profilaktika inspektori qaysi tartibda choralarni qo'lladi? (Q-4,5 ball)

A) Og'zaki tushuntirish → Profilaktik tushuntirish → Yozma qayd

B) Profilaktik tushuntirish → Yozma qayd etdi → Yozma ogohlantirish

C) Yozma qayd → Profilaktik tushuntirish → Og'zaki eslatma

D) Rasmiy ogohlantirish → Yozma qayd etdi → Profilaktik tushuntirish

9. Bir guruh o'quvchilar darsdan so'ng maktabning sport anjomlarini ruxsatsiz olib, o'yin vaqtida ularni shikastladilar. Ushbu holatda huquqbuzarlikning subyekti va obyekti aniqlang. Ular qanday javobgarlikka tortiladi? (Q-4,5 ball)

A) Huquqbuzarlik subyekti – maktab o'quvchilari, obyekti – maktab anjomlari. Agar o'quvchilar 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, ota-onalari ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

B) Huquqbuzarlik subyekti – maktab rahbariyati, obyekti o'quvchilar. Ular intizomiy javobgarlikka tortiladi.

C) Huquqbuzarlik subyekti – o'qituvchilar, obyekti– maktab buyumlari. Ular jinoiy javobgarlikka tortiladi.

D) Huquqbuzarlik subyekti – o'quvchilar, obyekti – maktab. Ular moddiy javobgarlikka tortiladi, lekin huquqiy emas.

10. 16 yoshli Laylo bozor hududida baland ovozda musiqani yoqib, atrofdagilarning osoyishtaligini buzgan. IIB xodimlari unga nisbatan chora ko'rgan. Layloning harakati qanday huquqiy bahoga ega? (M-5,5 ball)

A) Axloqiy qoidabuzarlik, faqat ogohlantiriladi

B) Ma'muriy huquqbuzarlik, ogohlantirish yoki jarima qo'llaniladi

C) Jinoyat, jinoiy javobgarlikka tortiladi

D) Intizomiy qoidabuzarlik, maktab ma'muriyati tomonidan tanbeh beriladi